

O'ZBEK FOLKLOR JANRLARIDA DO'STLIK MOTIVINING BADIY VA
TARBIYAVIY AHAMIYATI

Ikromova G.A

*Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)*

Ahmadjonova G.Z

*Farg'ona davlat universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi 1-kurs magistranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarida uchraydigan do'stlik motivining badiiy va tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilinadi. Folklor janrlari – ertaklar, maqol va she'rlarda do'stlik, sadoqat, hamjihatlik, o'zaro yordam kabi insoniy fazilatlarining badiiy ifodasi ilmiy jihatdan o'rganilgan. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalarida aks etgan do'stlik motivining yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashdagi o'rni yoritilgan. Maqolada folklor asarlarining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinib, ularning boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda ijobiy sifatlarni shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun yangi joriy etilgan 3-sinf o'qish savodxonligi darsliklaridagi folklor namunalarining mazmuni va ularning tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: folklor, o'zbek xalq og'zaki ijodi, folklor janrlari, do'stlik motivi, tarbiyaviy ahamiyat, boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi, 3-sinf darsligi, ijobiy sifatlari, ma'naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik imkoniyatlar, folklor materiallari.

Abstract: This article analyzes the artistic and educational significance of the friendship motif found in examples of Uzbek folklore. The artistic expression of human values such as friendship, loyalty, solidarity, and mutual support in folklore genres—particularly in tales, proverbs, and poems – is examined from a scientific perspective. In addition, the role of the friendship motif reflected in folk oral literature in the moral and ethical upbringing of the younger generation is highlighted. The article also analyzes the pedagogical potential of folklore works and substantiates their importance in developing positive qualities in students within the process of primary education. Furthermore, during the research, the content of folklore samples included in the newly introduced 3rd-grade reading literacy textbooks for general secondary schools and their educational potential were examined.

Keywords: folklore, Uzbek folk oral literature, folklore genres, friendship motif, educational significance, primary education, reading literacy, 3rd-grade textbook, positive qualities, moral and ethical education, pedagogical potential, folklore materials.

Аннотация: В данной статье анализируется художественно-воспитательное значение мотива дружбы, встречающегося в узбекских народных устных произведениях. Научно исследуется художественное

выражение таких человеческих качеств, как дружба, верность, солидарность и взаимопомощь, в фольклорных жанрах – сказках, пословицах и стихах. Также подчеркивается роль мотива дружбы, отраженного в народных устных произведениях, в духовно-нравственном воспитании молодого поколения. В статье анализируется педагогический потенциал фольклорных произведений и обосновывается их важность в формировании позитивных качеств у учащихся в процессе начального образования. Одновременно в ходе исследования анализируется содержание фольклорных образцов в недавно введенных учебниках по чтению для 3-го класса общеобразовательных средних школ и их образовательный потенциал.

Ключевые слова: *фольклор, узбекское народное устное искусство, фольклорные жанры, мотив дружбы, образовательное значение, начальное образование, чтение, учебник для 3-го класса, позитивные качества, духовно-нравственное воспитание, педагогические возможности, фольклорные материалы.*

KIRISH

Bugun dunyo turli jabhalarda turli sohalarda jadal rivojlanib bormoqda jumladan, ta'lim sohasida ham keskin islohotlar olib borilmoqda. Yangi O'zbekistonimda ham ta'limga e'tibor qaratish sifati yaxshilanmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat, va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak".[1]

Xalq og'zaki ijodi – millatning ma'naviy merosi, tarixiy xotirasi va qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim madaniy manbadir. Folklor asarlari xalqning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy tajribasini o'zida mujassamlashtiradi. Shu sababli folklor namunalari aks etgan g'oyalar yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek folklorida insoniy fazilatlar, xususan, do'stlik, sadoqat, halollik, jasorat va mehr-oqibat kabi qadriyatlar keng tarannum etiladi. Ayniqsa do'stlik motivi ko'plab folklor janrlarida asosiy g'oyalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur motiv orqali insonlar o'rtasidagi hamjihatlik, sadoqat va o'zaro yordam kabi fazilatlar targ'ib qilinadi. Shu jihatdan o'zbek folklorida do'stlik motivining badiiy hamda tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Folklor – xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi og'zaki ijod namunalari majmuasidir. Folklor asarlari avloddan-avlodga og'zaki tarzda o'tib keladi va xalqning ijtimoiy tajribasini saqlab qoladi. Shu sababli folklor nafaqat badiiy meros, balki muhim tarbiyaviy manba hisoblanadi. "Ilmiy tadqiqotlarda folklor "xalqning ijtimoiy xotirasi va madaniy genetik kodi" sifatida

talqin qilinadi. Folklor asarlari nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki milliy o'zlikni saqlab qolish, ma'naviy merosni avloddan-avlodga yetkazish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy adabiyot va madaniyat taraqqiyoti jarayonida folklorizm hodisasi — ya'ni xalq og'zaki ijodining badiiy adabiyotda, teatrda, kinoda, musiqada yoki ommaviy madaniyatda qayta ishlanib, yangi shaklda namoyon bo'lish jarayoni — alohida tadqiqot obyektiga aylandi.[2, 2-3] Folklor asarlarining muhim xususiyati shundaki, ular nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki insoniy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Folklor namunalari xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi va axloqiy qarashlari mujassam bo'lgan. Shu bois folklor materiallari ta'lim jarayonida tarbiyaviy vosita sifatida keng qo'llaniladi.

Do'stlik motivi o'zbek folklorining turli janrlarida keng namoyon bo'ladi. Ayniqsa dostonlar va ertaklarda bu motiv alohida badiiy ifodaga ega. Ertaklarda ham qahramonlar ko'pincha do'stlari yordamida turli sinovlardan muvaffaqiyatli o'tadi. Bu orqali o'quvchilarda hamkorlik va o'zaro yordam g'oyalari shakllantiriladi. Shuningdek, o'zbek xalq maqollarida ham do'stlik mavzusi keng aks etgan. Masalan:

Do'st kulfatda bilinadi.

Yaxshiga aytsang, bilar,

Yomonga aytsang, kular.

Do'st ko'p bo'lsa – yo'l qisqa kabi.

Bu maqollar xalq donishmandligining yorqin namunasi bo'lib, insonlarni sodiq va mehribon bo'lishga undaydi. Folklor asarlarida berilgan do'stlik g'oyasi yosh avlodni ma'naviy jihatdan barkamol etib tarbiyalashda, ularda sadoqat, mehr-oqibat, hamkorlik, insonparvarlik, do'stga yordam berish kabi ko'plab ijobiy sifatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli folklor materiallari boshlang'ich ta'lim jarayonida samarali pedagogik vosita sifatida foydalanilishi mumkin.[3, 35]

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda badiiy matnlarning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, folklor motivlariga yaqin bo'lgan badiiy matnlar o'quvchilarda ijobiy insoniy fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan umumiy o'rta ta'lim maktablarining yangi avlod 3-sinf O'qish savodxonligi darsligi 2-qismda berilgan ayrim hikoyalar mazmunan folklor an'analaridagi axloqiy g'oyalar bilan uyg'unligi bilan ajralib turadi.[4, 11-14]

Mazkur darslikda keltirilgan "Chin do'st" nomli uchta mashina haqidagi hikoyada turli xarakterdagi obrazlar orqali muhim axloqiy g'oyalar ifodalangan. Hikoyada birinchi mashina o'zining kuchi va qudratini maqtashi, ikkinchi mashina esa tashqi ko'rinishiga ortiqcha baho berishi orqali manmanlik va o'zini boshqalardan ustun qo'yish kabi salbiy sifatlarni ifodalaydi. Uchinchi mashina esa kamtar, mehribon hamda boshqalarga yordam berishga tayyor obraz sifatida tasvirlangan. Hikoya syujeti davomida birinchi mashinaning yoqilg'isi tugab qoladi, ikkinchi mashinaning esa suvi kamayadi. Aynan uchinchi mashina ularga yordam qo'lini cho'zadi. Natijada boshqa

mashinalar o'z xatolarini anglab yetib, uchinchi mashinaning kamtarligi va insonparvarligini tan olishadi.

Mazkur syujet o'zbek xalq og'zaki ijodida keng uchraydigan do'stlik, hamjihatlik va o'zaro yordam motivlari bilan mazmunan uyg'unlik kasb etadi. Folklor asarlarida ham qahramonlarning mehr-oqibat, sadoqat va hamkorlik orqali turli qiyinchiliklarni yengib o'tishi asosiy g'oyalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda, darslikdagi mazkur hikoya folklor an'alariga xos axloqiy qadriyatlarning zamonaviy talqinini aks ettiradi.

Shuningdek, mazkur hikoya o'quvchilarda axloqiy qadriyatlarni anglash bilan bir qatorda, ularni kundalik hayotiy vaziyatlar bilan bog'lab tushunish imkonini ham beradi. Bu esa o'qish savodxonligi darslarining nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy vazifani ham samarali amalga oshirishiga xizmat qiladi.

MUHOKAMA

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarida uchraydigan do'stlik, hamjihatlik, mehr-oqibat va o'zaro yordam g'oyalari yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur g'oyalar zamonaviy o'quv darsliklarida ham turli badiiy shakllarda aks etib, o'quvchilarning axloqiy tasavvurlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Tadqiqot davomida yangi avlod 3-sinf o'qish savodxonligi darsliklaridagi ayrim badiiy matnlar tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, darsliklarda berilgan hikoyalar va boshqa matnlar mazmunan folklor an'alariga xos bo'lgan axloqiy g'oyalarni zamonaviy talqinda ifodalaydi. Masalan, uchta mashina haqidagi hikoya syujeti orqali kamtarlik, mehribonlik va do'stga yordam berish kabi fazilatlar targ'ib qilinadi. Bu esa folklor asarlarida keng uchraydigan do'stlik motivining zamonaviy badiiy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.[5, 331]

Mazkur holat folklor motivlarining ta'lim jarayonida samarali pedagogik vosita bo'lishini tasdiqlaydi. Chunki bunday matnlar o'quvchilarga murakkab axloqiy tushunchalarni sodda va tushunarli obrazlar orqali anglash imkonini beradi. Shu bilan birga, ular o'quvchilarning hayotiy tajribasi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlarni aks ettirishi orqali tarbiyaviy ta'sirni yanada kuchaytiradi. Shuningdek, folklor motivlariga asoslangan matnlar o'quvchilarda nafaqat axloqiy qadriyatlarni anglash, balki ularni amaliy hayotda qo'llash ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Bu esa boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qish savodxonligi fanining tarbiyaviy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA

O'tkazilgan tahlillar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, folklor motivlariga yaqin bo'lgan badiiy matnlar boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Shu sababli o'qish savodxonligi darslarida folklor mazmuniga yaqin bo'lgan matnlardan keng foydalanish o'quvchilarda ijobiy insoniy fazilatlarini rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarida do'stlik motivi muhim badiiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Etaklar hamda maqollarda do'stlik, sadoqat va hamjihatlik kabi insoniy fazilatlar keng targ'ib qilinadi. Folklor asarlarida aks etgan bunday g'oyalar yosh avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu sababli folklor materiallaridan ta'lim jarayonida foydalanish o'quvchilarda ijobiy sifatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu jihatdan qaraganda, folklor motivlari asosida yaratilgan yoki ularga mazmunan yaqin bo'lgan badiiy matnlar boshlang'ich ta'lim jarayonida muhim didaktik va tarbiyaviy vosita sifatida xizmat qiladi. Ularning o'quv jarayoniga maqsadli ravishda kiritilishi o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish bilan birga, ularning ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Xalq so'zi. 2020-yil 25-yanvar. № 19 (7521)

Botirova F. Folklor va folklorizmlarning o'zaro moslashuvi. –Toshkent: Advancesin Science and Education 2025.

Mirzayev T. O'zbek xalq og'zaki ijodi. –Toshkent: O'zbekiston, 2006.

Aydarova U.B, Azizova N.K. O'qish savodxonligi. 3-sinf 2-qism. –Toshkent: Novda 2023.

Oxunjon Safarov. O'zbek xalq o'gzaki ijodi. – Toshkent: Musiqa 2010.

www.science-education.uz